

MULOQOT MADANIYATI VA UNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.

Alimardanova Uldona Choriyevna.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi talabasi

Tel nomer: +998 91 727 82 77

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

ANNOTATSIYA: Ushbu ishda muloqot madaniyatining mazmuni, uning tarkibiy qismlari hamda inson hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Muloqot madaniyati shaxsning nutqi, muomala odobi, tinglay olish ko'nikmasi va boshqalar bilan hurmat asosida munosabat o'rnatish bilish qobiliyatini shakllantirishi ta'kidlanadi. Shuningdek, mavzuda muloqot madaniyatining shaxs rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri — ijtimoiy moslashuv, o'zini anglash, sog'lom munosabatlar yaratish, konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish va liderlik sifatlarining rivojlanishi kabi jihatlar bayon qilingan. Ish muloqot madaniyatining har bir inson uchun zarurligini va uni rivojlantirish shaxsiy hamda ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omili ekanini asoslab beradi.

KALIT SO'ZLAR: Muloqot, nutqning funksiyasi, muomalaga kirishish, muloqotning tizimi, konflikt, ijobiy ta'sir, filogenez, hamdardlik.

KIRISH:

Muloqot bu ikki va undan ortiq odamning fikr, ma'lumot, his - tuyg'u va g'oyalar almashinuvi jarayonidir. U odamlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni, hamdardlikni va munosabatlarni shakllantiradi. Muloqotning universal vositasi sifatidagi hozirgi zamon nutq holatigacha odamning uzoq davom etgan filogenezdagi

taraqqiyot jarayoni bo'lib o'tgan edi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, nutq bu insonga xos bo'lgan faoliyat. Nutq bilan birga til ham ilk marotaba faqat insoniylik jamiyatida, hamkorlikdagi mehnat jarayonida yuzaga keldi.

Hozirgi zamon fan ma'lumotlarga ko'ra, dastlabki nutqi majmui ki - netik nutq bo'lgan. Nutqning bu shakli ibtidoiy obraz tafakkur bilan bog'langan bo'lib taxminan yarim million yil albal paydo bo'lgan. Majmui kinetik nutq deb, tana harakatlar orqali ma'lumot yetkazishning sodda tizimiga aytiladi. Nutq rivojlanishining keyingi bosqichida nutq harakatlarining asta-sekin mehnat faoliyatidan ajralib, nutq vositalari sifatida ixtisoslashishi, ya'ni, ularning jestlarga aylanishi bilan bog'liq. Harakatlarning nutq va mehnat harakatlariga bo'linishiga odamlar mehnat faoliyatining murakkablashishi sabab bo'ladi. Natijada maxsus qo'l bola til va qo'l nutqi hosil bo'ladi. Shunday qilib, odam qo'li mehnat va muloqotning asosiy vositasi bo'lib qoldi. Tovushli nutqqa o'tish, taxminan, 100 ming yillar avval boshlangan bo'lishi mumkin. Bu ishlab chiqarishning rivojlanishi va mehnatning birlamchi bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan. Qo'l nutqi bajara olmaydigan jism va hodisalar alohida tushunchalar tizimida aniqroq belgilanadigan nutqqa talab paydo bo'ladi. Inson ongi ijtimoiy chuqur tabiatga ega. U predmetli faoliyat jarayonida, bolaning kattalar bilan muloqotida, kattalarning bir-birlari bilan muloqot jarayonida shakllanadi va boshlanishidan ijtimoiy xarakterga ega. Muloqot jarayonida bolaga umuminsoniy tajribalarning asosi beriladi, shuning uchun individual psixologik, alohida shaxs psixologiyasi ijtimoiy holat hisoblanadi. Agar umuminsoniy tajribani berish jarayonida sizlar alohida ahamiyat kasb etsa, iboralar ham insoniy tajribalarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Muloqotlarni gaplar orqali yetkazish ikkiga bo'linishi mumkin. Aniq voqealar haqida ma'lumot yetkazish yoki voqealar kommunikatsiyasi va mashhur mantiqiy munosabatlar orqali yetkazish yakkiy munosabatlar kommunikatsiyasi mavjuddir. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni- jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlardan kelib chiqqan

turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatga kirishish jarayonidir. Ya'ni har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro tasir shakllarini o'zi ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir- birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikda talab qiladi.

Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si, uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir qarishda seng`ini tuyilgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixik jihatdan murakkabligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: “ Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro tasir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinish jarayoni;
- d) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- C) bir-birga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birini tushunish jarayoni”.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zids individ sifatlarini saqlab qolishi mumkun, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz. Muloqotni yana bir muhim vazifasi- u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, faqat o'zigagina foyda keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya , ya'ni odamni yolg'izlantirib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odam idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Muloqot madaniyati — bu insonning boshqalar bilan odob-axloq me'yorlariga

rioya qilgan holda, to'g'ri, aniq va samimiy tarzda fikr almashish qobiliyatidir. U nafaqat so'zlash jarayonini, balki tinglash, tushunish, muomala odobi, ko'z qarashi, tana harakati kabi noverbal belgilarni ham o'z ichiga oladi. Muloqot madaniyatiga ega bo'lgan shaxs boshqalar bilan hurmat asosida munosabat o'rnatadi, o'z fikrini adabiy me'yorlarda ifodalaydi va suhbatdoshning fikriga e'tibor bilan yondashadi.

Muloqot madaniyati shaxs rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Avvalo, yaxshi muloqot qobiliyati insonning o'zini to'g'ri anglashiga, ichki dunyosini ifoda eta olishiga yordam beradi. Shaxs muloqot jarayonida o'z fikrlash doirasini kengaytiradi, o'zini boshqarish va boshqalarni tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday odam jamoadagi munosabatlarni oson yo'lga qo'yadi, do'stlar, o'qituvchilar, hamkasblar bilan samimiy va sog'lom aloqalar o'rnatadi. Shuningdek, muloqot madaniyati konfliktlarni oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. O'z fikrini muloyimlik bilan ayta oladigan, tinglay oladigan va bahs jarayonida o'zini tuta biladigan inson har qanday vaziyatda murosaga kelish yo'lini topa oladi. Bu esa ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi va shaxsning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi. Yana bir muhim jihat — muloqot madaniyati liderlik sifatlarini shakllantiradi. Tushunarli, ravon va ishonchli muloqot qiladigan, odamlar bilan ijobiy aloqa o'rnatadi oladigan shaxs jamoadagi faol, mas'uliyatli va yetakchi inson sifatida ko'zga tashlanadi. Bunday ko'nikmalar o'qish, ish yoki kundalik hayotda katta muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Xulosa:

Umuman olganda, muloqot madaniyati insonning nafaqat nutq madaniyatini, balki uning xulq-atvori, muomala odobi, tinglash ko'nikmasi va boshqalarni tushunish darajasini ham belgilaydi. Muloqotning to'g'ri yo'lga qo'yilishi shaxsning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlaydi, odamlar bilan sog'lom va barqaror munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Muloqot madaniyatiga ega bo'lgan shaxs o'z fikrini aniq ifoda etadi, hurmat bilan so'zlaydi, bahs-munozaralarda o'zini bosib tura oladi va turli vaziyatlarda murosa yo'lini topadi. Muloqot madaniyati shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Chunki inson o'zlashtirgan bilimlarini

boshqalar bilan muloqot orqali mustahkamlaydi, yangi fikrlar, tajribalar va dunyoqarash bilan boyiydi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy faolligini oshiradi, uni jamiyatga moslashgan, ongli va mas'uliyatli inson sifatida shakllantiradi. Muloqot madaniyati rivojlangan inson jamoadagi muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, do'stona va hamkorlik ruhini yaratadi. Shu bilan birga, u o'zida liderlik, mas'uliyat, empatiya va o'zaro tushunishni rivojlantiradi. Shu sababli, muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish har bir insonning shaxsiy kamoloti uchun zarur bo'lgan asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. (Muommoli ma'ruzalar matni) . Namangan 2005.
2. V. Karimova. Psixologiya. (O'quv qo'llanma). T.2002.
3. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi. (ma'ruzalar to'plami) .T. 2003. ToshDPU.
4. Ivanov.P . Zufarova.M “ Umumiy psixologiya “ T-2008-y.
5. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 5(2), 91-95.
6. Abdulkarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
7. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
8. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. *Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatsiyalar Jurnali*, 1(6), 611-616.